

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-11

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF NATIONAL SELF-AWARENESS IN FUTURE TEACHERS

Nigmanova Umida Bakhramovna doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
v.b.professor

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Annotation: in this article, first of all, when conducting the educational and educational training process using innovative pedagogical technologies, the ability of the future teacher to analyze independently acquired knowledge, skills and qualifications, spiritually broad data, pedagogical thinking and pedagogical etiquette in future teachers, pedagogical technique, understanding of national identity, spiritual perfection, organization, perseverance, acquisition of pedagogical competence, it is illuminated through the pedagogical means of influence of the content of such qualities as demanding, strict discipline.

Key words: knowledge, skills, competence, competence, reform, understanding of the national self, initiative, socio-professionalism, perfection, spiritual-moral virtue

BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Nigmanova Umida Baxramovna pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD),
v.b.professor

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiti

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetentsiyasini rivojlanirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonini innovasion pedagogik tenologiyalardan foydalanib olib borishda avvalo, bo'lajak o'qituvchining mustaqil egallangan bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy-tarbiyaviy ahloqiy jihatdan keng ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, pedagogik tafakkur va pedagogik odob, pedagogik texnika, milliy o'zligini anglaganligi, ma'naviy barkamolligi, tashkilotchilik, matonat, pedagogik layoqatga ega bo'lish, talabchanlik, qat'iy intizom kabi sifatlarni tarkib toptirishning pedagogik ta'sir vositalari orqali yoritilgan.

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetentlik, islohot, milliy o'zlikni anglash, tashabbuskorlik, ijtimoiy – professionallik, barkamollik, ma'naviy-ahloqiy fazilat

Mamlakatimiz ta'lim va fan, innovatsion ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning negizida, xalqimizning buguni va ertasi bo'lgan – kelajak avlod kadrlarini tayyorlash masalasi eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash masalasiga to'xtalib: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-11

Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim¹” deb takidlaganlari ham bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev² jamiyatda yosh-avlod va ularning xalq oldida mas’ulyatigga e’tibor berar ekan: “yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega[15]” ekanligi mamlakatimiz ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, yosh-avlodning jamiyatda o‘z intellektual salohiyati va o‘z istedod va iqtidorini namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Jumladan, hozirgi vaqtida respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishda ma’naviy-ahloqiy, tarbiyaviy mezonlarga, ta’limning shakl, metod, vositalari, mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarga ta’lim va tarbiya berishning barcha bosqichlarini texnologik jihatdan modernizatsiyalashtirish, hozirgi zamonaviy ta’lim sharoitdan kelib chiqib ta’lim tizimida muhim strategik ustuvor yo‘nalishlarda olib borilayotgan islohotlar hamda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim ustuvor vazifalarni bajarish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha talaba-shaxsini tarbiyalash, uning milliy-ma’naviy ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, yosh avlod tarbiyasi, uning kelajagi, ertangi kunga ishonch ruhida tarbiyalash masalasi yosh-avlod shaxsi ma’naviy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Xususan, milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘lajak kadarlarda ma’naviy qadriyatlarning barcha sohalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lish, milliy qadriyatlarga sodiqlik, ruhida tarbiyalashda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, odob-axloq tamoyillarini egallashi, o‘ziga ishongan raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashda ta’limning shakl, metod va vositalarni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtida ta’lim tizimining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnika va innovatsion ta’lim texnologiyalarini amaliyotda qo‘llashda milliy va umummadaniy qadriyatlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari” fanlar tizimining metodik asosini yaratish maqsadida talabalarda faqat mutaxassislikka doir bilimlarni chuqur egallashlari hamda ularning ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha bilimlarini yanada chuqurlashtirish va mustahkamlash bo‘yicha, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, mantiqiy tafakkuri va kreativ – ijodiy sifatlarini rivojlantirish, emotsiонаl-irodaviy tafakkurini oshirib borish bo‘yicha ishlarni takomillashtirish zarur³.

Xususan, ta’lim –tizimi sifat samaradorligini oshirishda avvalo talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan bilim darajasini oshirish, kreativ qobiliyatini rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega ekanligi, tafakkuri doirasasi va xarakterining chiniqqanligi, ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy xislatlari, emotsiонаl-

¹ Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 30 декабрь №-255 сон

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 537 6.

³ Ибрагимов X., Абдуллаева Ш. Педагогика. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2004. – 182 6.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-11

irodaviy-irodaviy sifatlari, kasbiy-ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligi aniqlash hamda o‘z bilim doirasini bilish va ta’lim jarayonini shunga qarab tashkil etish bo‘yicha ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jumaladan, xozirgi informatsion xurujlar ta’siri kun sayin oshib borayotgan murakkab sharoitda fan va texnikaning rivojlangan tizimini, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta”lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha ishlarni jadallashtirishni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, o‘quv-tarbiya ishlarni o‘quv jarayonlaridagi “Umumiy pedagogika”, “Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari”, “Etnomadaniyat”, “Ma’naviyatshunoslik” o‘quv fanlari va darsliklari orqali muammo yechimini topish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish zarur⁴.

Demak, «Pedagogik texnologiya» fanlari orqali o‘quv kursi fani o‘quv dasturi va darsliklari oliy ta’lim muassasalari talabalari, uchun yaratilgan bo‘lib, unda tizimli ravishda mutaxassislar tayyorlashda talablarning ortib borishi munosabati bilan chuqur intellektual qobiliyatga ega, dunyoqarashi keng, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli, o‘z bilimi va shaxsiy fazilatlari bilan o‘rnak bo‘la oladigan kadrlarni tayyorlash maqsad qilib olingen. Shu jihatdan mutaxassislikka oid fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy fanlar, ya’ni pedagogika fani ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bo‘lajak mutaxassislarni ta’lim-tarbiyadan zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirmasdan rejalashtirilgan samaradorlikka erishib bo‘lmaydi⁵.

Bo‘lajak pedagogning kasbiy tarbiyaviy faoliyatga qiziqishi, qat’iy ishonchi va qobiliyati uning kasbiy tarbiyaviy, an’analar, qadriyatlar va manfaatlar hamda, extiyojlarning umumiy faoliyatiga yo‘nalganligini tashkil etadi. Uning kasbiy tarbiyaviy faoliyatga yo‘nalganlik darajasi kasbiy tayyorgarlikka va o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglash kompetentligiga erishishga olib keladi. Milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalari – shu soha to‘g‘risida asosli fikr yuritishga imkon beruvchi va unda samarali harakat qilishga tegishli bilimlar va qobiliyatlarga ega bo‘lishni anglatadi. Milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalari uch qismdan iborat holda o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini tarixiy meros, bugungi kunning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari hamda Vatan kelajagi yo‘lidagi ma’suliyat bilan yondoshish kabi qismlar asosida o‘rganildi. Ushbu qismlar asosida kompetensiyalar ajratib chiqildi va o‘rganildi. Milliy o‘zlikni anglashni samarali olib boradigan kompetentli pedagog – ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini mukammal egallagan, kasbiy tarbiyaviy faoliyatda samaradorlikka erishishdagi bilimlar va qobiliyatlar yig‘indisi asosida shakllanadi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash millat shakllanishining ma’lum nisbiy yuqori bosqichining mezonidir. Millat o‘ziga xos bo‘lgan urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarni shakllantirishi va davlat atrofiga birlashishlari mumkin. Ammo, uning milliy o‘z-o‘zini anglashi darajasiga ko‘tarilishi murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u millat vakillarining aksariyat ko‘pchilik qismining moddiy va ma’naviy boyliklarga ega ekanligi hissiyorining, tor darajada, mavjud bo‘lishi manfaatlaridan umummillat manfaatlarni ustvor qo‘ya bilish darajasiga ko‘tarila olishi bilan bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy ong millatni o‘ziga hosligi asosida rivojlanib borishdagi ko‘rsatkich bo‘lsa, milliy o‘z-o‘zini anglash manfaatlarni himoya qilishda harakatga keltiruvchi ichki ma’naviy-ruhiy salohiyatdir deb takidlashga asos bo‘ladi. Milliy o‘z-o‘zini anglash real moddiy kuch sifatida millat sha’ni qadr-qimmati, obro‘-e’tibori, or-nomusi poymol etilganda, yoki millatning moddiy va ma’naviy manfaatlariga zid ikkinchi bir tomondan zo‘ravonlik xarakatlar yuzaga keltirilgan holatlarda

⁴ Мусурмонова О. Маънавий қадриялар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

⁵ Толипов Ў.К., Усмонбоев М.Х. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 206 б.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-11

namoyon bo‘ladi. Sha’ni, qadr-qimmati, or-nomusi, obro‘-e’tibori va manfaatlari poymol etilgan millat vakllari qaysi lavozimda hizmat qilishi, boy yoki qambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar yagona umummilliy kuch bo‘lib birlashadilar va o‘zligini himoya qiladilar.

Shu tariqa milliy o‘z-o‘zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi moddiy kuchga aylanadi.

Bundan tashqari u faqat milliy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, shuning bilan u turli “og‘riqlar” yoki muammolar yuzaga kelgan sharoitda ham millatni “harakatga” keltiradi va uni birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ham u millatni birlashtiradi va uni umummaqsadlar yo‘lida xarakatga keltiradi, u har qanday millat uchun yetakchi belgi hisoblanadi. U o‘zining katta salohiyati bilan millat uchun zarur asosiy o‘ziga hos belgilari tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. U millatning yuragi, qalbi tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jonidir. O‘zligini anglashdan to‘xtagan yoki undan mahrum bo‘lgan har qanday millat o‘limga mahkumdir. U o‘zga millatlarga “em” bo‘lib ularga assimilyatsiya orqali qo‘shilib ketadi va oqibatda yo‘q bo‘lib ketadi.

Xuddi shu ma’noda ham milliy o‘z-o‘zini anglash millat abadiyligini ta’minlashning ham muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o‘ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi.

O‘zbek millati taraqqiyotida milliy o‘z-o‘zini anglash jarayoni Chor imperiyasi bu o‘lkani bosib olgandan keyin o‘z mustaqilligi uchun kurashlarda, sho‘rolar tuzumi sharoitida o‘zligini saqlab qolishi uchun bo‘lgan harakatlarda moddiy kuchga aylanib keldi. U o‘zbek millatining o‘z mustaqilligini ko‘lga kiritgandan keyin o‘z-o‘zini anglashi ikki yo‘nalishda: sobiq sho‘rolar davrida toptalgan urf-odatlarini, qadr-qimmatini, qadriyatlarini tiklash va ma’naviy meroslarini o‘zlashtirishgach bo‘lgan harakatlarda va yangi adolatli demokratik huquq ustivorligiga asoslangan jamiyat kurish bilan bog‘liq bo‘lgan islohatlarni o‘tkazish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishdagi umumiymiliy harakatlarda namoyon bo‘lmoqda⁶.

Millatning o‘zligini anglashidagi muhim jihatlar shundan iboratki, ijtimoiy tuyg‘u orqali har bir xalq, millat o‘zining kimligini, nimaga qodir ekanligini, qadr – qimmatini bilib oladi, or – nomusini o‘yaydi, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini his qiladi, qaysi yo‘l mamlakatni sivilizatsiyaga olib borishini teran anglaydi. Milliy o‘zlikni anglash xalqni uyg‘otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchga ega.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning rivojlanib borishi yoki bu millatni o‘zga millatlardan ajralib ketishiga olib kelmaydi, balki o‘zligini anglagan millatlarning ma’rifatlashgan hamkorliklarning mustahkamlanib borishiga yordam berib boraveradi.

Millatlarning o‘z-o‘zini anglashi qanchalik mustahkam bo‘lsa, uning o‘z muammolarini hal qilish imkoniyati ham kengayib boradi. O‘z-o‘zini anglagan millatning milliy birligi ham mustahkam bo‘ladi. Milliy birlik o‘z navbatida millat abadiyligining barqaror muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida o‘zbek xalqining o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgandir.

⁶ Узбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан.- Т.: Ўзбекистон”, 1995, 225-бет.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-11

Adabiyotlar:

1. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 30 декабрь №-255 сон
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 537 б.
3. Ибрагимов X., Абдуллаева Ш. Педагогика. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2004. – 182 б.
4. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлил тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоев М.Х. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 206 б.
6. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан.- Т.: Ўзбекистон”, 1995, 225-бет.
7. Jumaniyozov X.S. U.Nigmanova, A.Rasulova, O.Abdug‘aniyev. The essence of the phenomena of extremism and terrozism in the conext of globalization and its to the stabilitu of the internatbonal communitu. ANNALS OF FJREST RESEARCH. Ann. For. Res. 65(1): 9173-9179, 2022. ISSN: 18448135, 20652445.
8. Jumaniyozov X.S. The role and significance of geo-age factors in social development. Conference on the role and importance. of science in the modern world Volume 01, Issue 04, 2024.
9. Jumaniyozov X.S. Early Geopolitical Teachings in Ancient China and India and Their Principles. Journal of Advanced Zoology ISSN: 0253-7214 Volume 44 Issue S-2 Year 2023.
10. Abduganiyev OT FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS //E Conference Zone. - 2022. - S. 10-13.
11. Oglu AOT Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Socially Active Civil Competence In Students //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. – 2021. – T. 12. – No. 7. – S. 433-442.
12. Abdug' Aniyev O. DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF GENERAL HUMAN VALUES IN STUDENTS ON THE BASIS OF A CULTURAL STUDY APPROACH //Science and innovation. - 2023. - T. 2. – no. Special Issue 9. – S. 316-319.
13. O'G , Abdug'Aniev Azod Tursunboy. "PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES OF DEVELOPING SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCES IN STUDENTS." *Science and innovation* 2. Special Issue 5 (2023): 708-713.
14. Tursunboyevich, Abduganiyev Azod. "Development of socially active citizenship competence in students and youth in continuous education." (2022).